

## DISKURS MARKERLARNING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI VA ULARNING INGLIZ HAMDA O‘ZBEK TILLARIDAGI QO‘LLANILISHI

Ismatova Aziza Shama qizi,

Jizzakh state pedagogical university trainee teacher

E-mail: [azizaxolboyeva637@gmail.com](mailto:azizaxolboyeva637@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada diskurs markerlarning lingvopragmatik xususiyatlari keng qamrovda tahlil qilinadi hamda ularning ingliz va o‘zbek tillaridagi strukturaviy, funksional va kommunikativ roli yoritiladi. Tadqiqot Fraser, Schiffirin va Halliday kabi olimlarning zamonaviy pragmatik nazariyalariga, shuningdek, korpus asosidagi kuzatuvlarga tayangan holda olib borilgan. Maqolada diskurs markerlarning nutqni tashkil etish, nutq egasining kommunikativ niyatini ifodalash, muloqotni boshqarish hamda koherensiya va kohezivni ta‘minlashdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, ularning turli kommunikativ vaziyatlarda kontekstga bog‘liq holda ko‘p funksiyali qo‘llanishi hamda ingliz va o‘zbek tillaridagi o‘xshash va farqli jihatlari yoritib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** diskurs markerlar, pragmatika, nutq izchilligi, demak, ya‘ni, aslida, xullas, lingvopragmatika, korpus tahlili.

**Abstract.** This article presents a comprehensive linguopragmatic analysis of discourse markers, focusing on their structural, functional, and communicative roles in English and Uzbek. Drawing on contemporary pragmatic theories, including those of Fraser, Schiffirin, and Halliday, as well as corpus-based observations, the study explores how discourse markers operate as essential tools for organizing discourse, signaling speaker intention, and managing interaction. Particular attention is given to their role in establishing coherence and cohesion, guiding interpretation, and facilitating effective communication in both spoken and written forms. Furthermore, the article highlights cross-linguistic similarities and differences in the use of discourse markers, emphasizing their context-dependent and multifunctional nature across various communicative settings.

**Keywords:** discourse markers, pragmatics, cohesion, coherence, well, so, actually, interaction, corpus linguistics.

**Аннотация.** В данной статье представлен комплексный лингвопрагматический анализ дискурсивных маркеров и их структурных, функциональных и коммуникативных особенностей в английском и узбекском языках. Исследование основано на современных прагматических теориях, в том числе работах Фрейзера, Шиффрин и Халлидея, а также на корпусных наблюдениях. Особое внимание уделяется роли дискурсивных маркеров в организации речи, выражении коммуникативного намерения говорящего, управлении взаимодействием, а также обеспечении когезии и когерентности текста. Кроме того, в статье рассматриваются их контекстуально обусловленная многофункциональность и выявляются сходства и различия в их использовании в разных коммуникативных ситуациях в английском и узбекском языках.

**Ключевые слова:** дискурсивные маркеры, прагматика, связность речи, когезия, когерентность, корпусный анализ.

**Kirish.** Diskurs markerlar tilshunoslikning zamonaviy bosqichida eng muhim pragmatik birliklardan biri sifatida qaralmoqda. Ular nutqning tashkiliy tuzilishini belgilash, gaplar o‘rtasidagi semantik va mantiqiy bog‘lanishni ta‘minlash hamda kommunikativ jarayonni boshqarishda markaziy rol o‘ynaydi. Shu jihatdan qaralganda, diskurs markerlar nutqning tashqi shaklini emas, balki uning ichki mantiqiy va pragmatik tizimini tashkil etuvchi element sifatida namoyon bo‘ladi. Ya‘ni, ular orqali nutq segmentlari o‘zaro bog‘lanadi, fikrlar ketma-ketligi izchil tarzda shakllanadi va umumiy kommunikativ maqsadga yo‘naltiriladi.

Tilshunoslik tarixida ushbu birliklarga bo'lgan e'tibor ayniqsa XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab keskin ortdi. Bu davrda pragmatika va diskurs tahlili mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllandi va diskurs markerlar ana shu yo'nalishlarning asosiy tadqiqot obyektiga aylandi. Bu holat tilshunoslikda e'tiborning faqat grammatik strukturalardan nutqning real ishlatilishiga, ya'ni "til tizimi"dan "til faoliyati"ga o'tganligini ko'rsatadi. Aynan shu jarayonda diskurs markerlar nutqning jonli va dinamik tabiatini ifodalovchi vosita sifatida ajralib chiqdi.

**Adabiyotlar tahlili.** Diskurs markerlarning mohiyatini chuqurroq tahlil qilganda, ularning asosiy vazifasi nutqdagi segmentlar o'rtasidagi munosabatni ochib berishdan iborat ekanligi ko'rinadi. Ular bevosita yangi axborot bermaydi, balki mavjud axborotni qanday tushunish kerakligini ko'rsatadi. Shu sababli diskurs markerlar ko'pincha semantik jihatdan "zaif", biroq pragmatik jihatdan "kuchli" birliklar sifatida tavsiflanadi. Bu ularning o'ziga xos xususiyatini tashkil etadi: ular nutqning mazmunini emas, balki uning talqin qilinish usulini boshqaradi.

Levinson (1983) pragmatikaning asosiy vazifalaridan biri sifatida nutq birliklarining kontekstga bog'liqligini ko'rsatadi va bu jihat diskurs markerlarning mohiyatini tushunishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi [7.67]. Haqiqatan ham, diskurs markerlar kontekstdan tashqarida to'liq ma'no kasb etmaydi. Ularning funksiyasi aynan nutq vaziyati, kommunikativ maqsad va ishtirokchilar o'rtasidagi munosabat bilan belgilanadi. Shu bois bir xil diskurs marker turli vaziyatlarda turlicha interpretatsiya qilinishi mumkin.

Bundan kelib chiqadiki, diskurs markerlar nutqning kontekstual va situativ jihatlarini faollashtiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Ular yordamida nutq egasi o'z fikrini qanday talqin qilish kerakligini ko'rsatadi, tinglovchining e'tiborini muayyan yo'nalishga qaratadi va muloqotning umumiy oqimini boshqaradi. Shu jihatdan ular nafaqat til birliklari, balki kommunikativ strategiya elementlari sifatida ham qaraladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda diskurs markerlarning lingvopragmatik xususiyatlarini o'rganishda qiyosiy-tipologik, pragmatik hamda korpus tahlili metodlaridan foydalanildi. Ingliz va o'zbek tillaridagi og'zaki hamda yozma nutq namunalari qo'llanilgan diskurs markerlar struktur-semantik va funksional jihatdan tahlil qilinib, ularning nutq izchilligi, kommunikativ strategiya va pragmatik ma'no hosil qilishdagi o'рни aniqlashtirildi. Shuningdek, Fraser, Schiffrin, Halliday va boshqa olimlarning nazariy qarashlari asosida diskurs markerlarning kontekstga bog'liq ko'p funksiyaliligi ilmiy jihatdan asoslandi.

**Tahlillar va natijalar.** Diskurs markerlarning yana bir muhim jihati shundaki, ular nutqning izchilligini faqat yuzaki bog'lanish orqali emas, balki chuqur mantiqiy aloqalar orqali ta'minlaydi. Ya'ni, ular gaplar orasidagi sabab-natija, qarama-qarshilik, izohlash yoki umumlashtirish kabi munosabatlarni ochib beradi. Bu esa nutqni yanada tushunarli, tizimli va qabul qilish uchun qulay qiladi. Shunday qilib, diskurs markerlar nutqning faqat

bog'lovchi vositasi emas, balki uning ichki strukturasi tashkil etuvchi va uni anglashni osonlashtiruvchi muhim komponent hisoblanadi.

Diskurs markerlar lingvistik tizimning o'ziga xos qatlami bo'lib, ular leksik va grammatik birliklar bilan bevosita mos kelmaydi. Shu sababli ular ko'pincha "chegara birliklar" (boundary elements) sifatida qaraladi. Fraser ularni nutq segmentlari o'rtasidagi pragmatik munosabatni ifodalovchi vosita sifatida izohlaydi [5.25–26]. Schiffrin esa diskurs markerlarni diskursning turli darajalarini bog'lovchi mexanizm sifatida talqin qilib, ularning interpretatsiya jarayonidagi rolini alohida ta'kidlaydi [9.31]. Ushbu yondashuvlar diskurs markerlarning nafaqat lingvistik, balki kognitiv va ijtimoiy xususiyatlarga ham ega ekanligini ko'rsatadi.

Diskurs markerlarning kognitiv jihati alohida e'tiborga loyiqdir. Blakemore relevance theory doirasida diskurs markerlarni tinglovchiga qanday interpretatsiya qilish kerakligini ko'rsatuvchi signal sifatida talqin qiladi [3.54]. Ya'ni ular ma'lumotni qanday tushunish kerakligini "yo'naltiradi". Bu esa diskurs markerlarni oddiy bog'lovchi emas, balki interpretatsion mexanizm sifatida ko'rsatadi.

Diskurs markerlarning sintaktik mustaqilligi ularning asosiy xususiyatlaridan biridir. Ular gap tarkibidan olib tashlansa ham grammatik tuzilma saqlanadi, biroq nutqning tabiiyligi va kommunikativ ohangi o'zgaradi. Masalan:

Well, I think we should reconsider this issue.

So, what does it mean in this context?

Demak, ushbu natija muhim xulosaga olib keladi.

Ya'ni, bu hodisa boshqacha talqin qilinadi.

Bu misollar diskurs markerlarning nutqni "yumshatish", "bog'lash", "yo'naltirish" kabi funksiyalarini ko'rsatadi. Brinton (1996) ushbu birliklarni nutq oqimini boshqaruvchi vosita sifatida talqin qilib, ularning interaktiv tabiatini asoslab beradi [4.45].

Diskurs markerlarning lingvopragmatik tabiati ularning ko'p funksiyaliligida yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, *so* markeri quyidagi vazifalarni bajarishi mumkin:

1. sabab-natija munosabatini ifodalash
2. yangi mavzuni boshlash
3. xulosa chiqarish
4. suhbatni davom ettirish

Bu ko'p funksiyalilik diskurs markerlarning kontekstga bog'liqligini yana bir bor tasdiqlaydi. Halliday va Hasan (1976) diskursdagi izchillikni ta'minlashda bunday birliklarning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi [6.78].

Diskurs markerlar nutqning koheziya va koherensiyasini ta'minlashda markaziy vosita hisoblanadi. Koheziya formal bog'lanishni bildirsa, koherensiya esa mazmuniy izchillikni anglatadi. Diskurs markerlar aynan shu ikki darajani bog'lab turadi. Masalan,

however qarama-qarshilikni bildiradi, therefore esa natijani ifodalaydi. O‘zbek tilida ammo, shuning uchun, natijada kabi birliklar shunga o‘xshash funksiyani bajaradi.

Taboada (2006) diskurs markerlarni coherence relations bilan bog‘lab, ularning matn semantikasini shakllantirishdagi rolini chuqur tahlil qiladi [11.102]. Shu jihatdan diskurs markerlar matnning ichki logikasini yaratishda asosiy vosita hisoblanadi.

Korpus lingvistikasi diskurs markerlarni o‘rganishda muhim metod hisoblanadi. Biber et al. (1999) tadqiqotlariga ko‘ra, diskurs markerlar ayniqsa og‘zaki nutqda juda yuqori chastotaga ega [2.112]. Masalan, *well, so, you know, I mean* kabi markerlar ingliz tilining kundalik nutqida keng qo‘llaniladi. Stubbs (1996) korpus tahlili orqali tilning real ishlatilish shakllarini aniqlash mumkinligini ta’kidlaydi [10.121].

O‘zbek tilida esa korpus lingvistikasi hali rivojlanish bosqichida bo‘lsa-da, mavjud tahlillar *demak, ya’ni, xullas, aslida* kabi markerlarning faol ishlatilishini ko‘rsatadi. Bu esa o‘zbek tilida ham diskurs markerlar muhim rol o‘ynashini tasdiqlaydi.

Diskurs markerlar ijtimoiy-pragmatik vosita sifatida ham muhimdir. Ular nutq egasining pozitsiyasini ifodalaydi, tinglovchi bilan munosabatni boshqaradi va kommunikativ strategiyalarni amalga oshiradi. Shu jihatdan diskurs markerlar faqat lingvistik birlik emas, balki muloqot jarayonidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi vosita sifatida ham namoyon bo‘ladi. Ya’ni, ular orqali nutq egasi o‘zining suhbatdoshga bo‘lgan munosabatini, ishonch darajasini, fikrga bo‘lgan munosabatini va kommunikativ niyatini bilvosita tarzda ifodalaydi. Diskurs markerlarning ushbu ijtimoiy-pragmatik funksiyasi ayniqsa interaktiv nutqda yaqqol namoyon bo‘ladi. Chunki jonli muloqot jarayonida nutq faqat axborot uzatish vositasi bo‘lib qolmay, balki ijtimoiy aloqani o‘rnatish va saqlash vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Shu sababli diskurs markerlar nutqning “yumshoqligi”ni ta’minlash, keskinlikni kamaytirish va suhbatning tabiiy oqimini saqlashda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, ingliz tilidagi *actually* markeri ko‘pincha qarama-qarshi fikrni to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki yumshoq va ehtiyotkor shaklda ifodalash uchun ishlatiladi. Bu orqali nutq egasi o‘z fikrini bildirar ekan, suhbatdosh bilan ijtimoiy muvozanatni buzmaslikka harakat qiladi.

O‘zbek tilida aslida markeri ham xuddi shunday funksiyani bajaradi. U fikrni aniqlashtirish yoki biroz qarama-qarshi nuqtani bildirishda ishlatiladi, biroq bu jarayon keskin emas, balki nisbatan yumshoq tarzda amalga oshiriladi. Bu esa diskurs markerlarning milliy-madaniy nutq uslublari bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Har bir tilda ushbu birliklar kommunikativ odob, nutq madaniyati va ijtimoiy normalar bilan uyg‘unlashgan holda ishlatiladi. Diskurs markerlar yordamida nutq egasi o‘z fikrining qat’iylik darajasini ham boshqaradi. Masalan, ayrim hollarda ular fikrni kuchaytirish yoki aksincha, yumshatish vazifasini bajaradi. Bu esa muloqot jarayonida nozik ijtimoiy muvozanatni saqlash imkonini beradi. Shunday qilib, diskurs markerlar nutqning faqat mazmuniy emas, balki ijtimoiy va emotsional jihatlarini ham tartibga soladi. Aijmer (2002) diskurs markerlarning emotsional va interaktiv funksiyalarini chuqur tahlil qilib,

ularning nutqdagi yashirin ma'no qatlamlarini ochib berishini ta'kidlaydi [1.89]. Bu fikr diskurs markerlarning faqat yuzaki bog'lovchi vosita emas, balki nutqning ichki kommunikativ mexanizmini aks ettiruvchi murakkab birlik ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Ingliz va o'zbek tillaridagi diskurs markerlarni qiyosiy tahlil qilish muhim ilmiy natijalarni beradi. Ingliz tilida diskurs markerlar juda faol, ko'p funksiyali va spontan nutqda keng qo'llaniladi. O'zbek tilida esa ular ko'proq rasmiy va mantiqiy nutqda uchraydi. Bu farq madaniy va kommunikativ uslublar bilan bog'liq. Müller (2005) bu farqlarni ikkinchi til o'rganishda muhim omil sifatida ko'rsatadi [8.94].

Diskurs markerlarning yana bir muhim jihati ularning stilistik moslashuvchanligidir. Rasmiy nutqda ular kamroq ishlatiladi, norasmiy nutqda esa juda faol bo'ladi. Bu esa ularning kommunikativ vaziyatga moslashuvchanligini ko'rsatadi.

Shuningdek, diskurs markerlar tarjima jarayonida ham muhim rol o'ynaydi. Ularni noto'g'ri tarjima qilish nutqning pragmatik ma'nosini yo'qotishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli tarjimada diskurs markerlarning funksional ekvivalentlarini topish muhim hisoblanadi. Diskurs markerlar sun'iy intellekt va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) sohasida ham muhim ahamiyatga ega. Ular matnni avtomatik tahlil qilish, dialog tizimlarini yaratish va nutqni tushunishda asosiy indikatorlardan biri hisoblanadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, diskurs markerlar til tizimining markaziy pragmatik komponenti bo'lib, ular nutqni tashkil etish, izchillikni ta'minlash va kommunikativ samaradorlikni oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ingliz va o'zbek tillaridagi ularning qiyosiy tahlili lingvopragmatik tadqiqotlarning dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Aijmer K. (2002). *Discourse Particles*.
2. Biber D. et al. (1999). *Longman Grammar*.
3. Blakemore D. (1987). *Relevance Theory*.
4. Brinton L. (1996). *Pragmatic Markers in English*.
5. Fraser B. (1999). *What are discourse markers?* Journal of Pragmatics.
6. Halliday M.A.K., Hasan R. (1976). *Cohesion in English*.
7. Levinson S. (1983). *Pragmatics*.
8. Müller S. (2005). *Discourse in L2*.
9. Schiffrin D. (1987). *Discourse Markers*. Cambridge University Press.
10. Stubbs M. (1996). *Corpus Analysis*.
11. Taboada M. (2006). *Coherence Relations*.